



**“SHIMOLIY MINTAQLARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



UOʻK – 622.882+631.15+504.062.4+631.155

**YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA REKUL'TIVACIYALASHNING
AHAMIYATI VA KEYIN KUZGI BUG'DOY EKISHNING IQTISODIY
SAMARADORLIGI**

Reymov Omirbay Nietbaevich –

Qoraqalpogʻiston qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalar institutining «Suv xoʻjaligi yerdan foydalanish» kafedrasida assistent oʻqituvchisi.

omirbayreymov9@gmail.com

Orazimbetov Nurbek Aybekovich-

Qoraqalpogʻiston qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalar institutining «Suv xoʻjaligi va yerdan foydalanish» kafedrasining 1 bosqich magistranti.

Reimov Nietbay Baynazarovich –

Qoraqalpogʻiston qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalar institutining «Suv xoʻjaligi va yerdan foydalanish» kafedrasida professori. Don va sholi ilmiy tadqiqot instituti direktorining ilm, fan va innovatsiyalar boʻyicha maslahatchisi. Qishloq xoʻjaligi fanlari doktori.

nietbayreimov1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19244046>

Ízoh – Ushbu ilmiy maqolada Respublikamiz yerlaridan samarali foydalanish uchun foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni rekul'tivatsiyalash orqali qayta foydalanishga qoʻshish hamda tuproq unumdorligini saqlab turish va oshirib borish uchun mahalliy va mineral ugʻitlardan foydalanish hamda begona oʻtlarni maydalab, ugʻit sifatida kuzgi bugdoy dalasiga foydalanish haqida soʻz yuritiladi.

Annotasiya- В данной научной статье рассматривается рекультивация выведенных из оборота земель для эффективного использования земель нашей Республики, а также использование местных и минеральных удобрений для поддержания и повышения плодородия почвы, измельчение сорняков и использование под озимую пшеницу их в качестве удобрений.

Abstract - This scientific article examines the reclamation of abandoned lands for efficient use of our Republic's lands, as well as the use of local and mineral fertilizers to maintain and increase soil fertility, weed crushing, and their use as fertilizers for winter wheat.

Kalit soʻzlar – Oʻzbekiston, Qoraqalpogʻiston, rekul'tivatsiya, noquloy iqlim, yer, tuproq, yerdan foydalanish, unumdorlik, suv tanqisligi, kadastr, kuzgi bugdoy, hosil, iqtisodiy samaradorlik.

Ключевые слова - Узбекистан, Каракалпакстан, рекультивация, неблагоприятный климат, земля, почва, землепользование, плодородие, дефицит воды, кадастр, озимая пшеница, урожай, экономическая эффективность.

Key words – Uzbekistan, Karakalpakstan, reclamation, unfavorable climate, land, soil, land use, fertility, water scarcity, cadastre, winter wheat, harvest, economic efficiency.

Kirish. Oʻzbekiston Respublikasi xalqining soni 39 millionga yaqinlashib, ortib borayotgan bir davrda qishloq xoʻjaligi mutaxassislari va olimlar oldida yerlardan yana da samarali foydalanish masalasi kun tartibidagi birinchi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mana, usha vaqtda oldin faol foydalanishda turgan ekish yerlarining har xil sabablar (suv tanqisligi, notoʻgʻri ishlov berish, yer egallovchining barcha maydonlarini vaqtida ekishga ulgurmasligi, begona oʻtlar bosib ketishi, yerlarning notekisligi, sanoaatning va mudofa ishlarining faol rivojlanishi, avto va temir yoʻllarning rekonstruksiyanishi) bilan faol foydalanishdan chiqib qolgan yer maydonlari



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



uchrachadi va ushbu yerlarni qaytadan faol foydalanishga qoʻshish har bir mutaxassisning vazifasi hisoblanadi.

Soʻngi yillarda Respublikamizda 450 ming gektar sugʻoriladigan yerlar suv taqchilligi, global iqlim oʻzgarishi, yerlarning shoʻrlanish tempining kuchayishi, ekish yerlarni notoʻgʻri foydalanish, irrigatsiya tizimlarining yomonlashuvi, yerlarning meliorativ holatining yomonlashishi va sanoatning rivojlanishi sababidan faol foydalanishdan chiqib qolib, foydalanishga yaroqsiz holatga kelib qolganligining sababchisi boʻlmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda sugʻorish suvlarining toʻliq yetishmasligi, irrigatsiya, melioratsiya tarmoqlarining takomillashishga zarurligi, suvni tejaydigan tomchilatib sugʻorish, diskret sugʻorish, yomgʻirlatib sugʻorish va boshqa da takomillashgan usullarni qoʻllash sababidan iqtisod qilingan sugʻorish suvlari hisobidan har xil sabablar bilan faol foydalanishdan chiqib ketgan bir milliondan ortiq yer maydonlarini faol foydalanish imkoniyati mavjud. Yerlardan samarali foydalansak xalqimizning farovonligi uchun ishlab chiqilgan oziq ovqat dasturida koʻrsatilgan qishloq xoʻjaligi ekinlaridan yuqori hosil olish uchun barcha imkoniyatlarni foydalanish boʻladi [1,3].

Respublikamiz Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi «Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi 5853-son Farmoni, 2017 yil 18 yanvardagi PQ-2731-son «2017-2021 yillarda Orol boyi regionini rivojlantirish boʻyicha davlat dasturi toʻgʻrisida»gi jahon qishloq xoʻjaligida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni qaytadan ishga qoʻshishni qoʻllash maqsadida, tuproq unumdorligini saqlash, tiklash va yuqorilatish boʻyicha har xil ijobiy qarorlar qabul qilingan: yerlardan sifatli, intensiv va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi «Oʻzbekiston Respublikasini qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi PF-5853-sonli Farmoni yerlarni maksimal darajada faol foydalanish bilan birga tuproq unumdorligini saqlash, yerlarni faol foydalanishda saqlab, qishloq xoʻjaligi ekinlaridan rejalashtirilgan hosilni yetishtirishda yerlarni sifatli rekulʼtivatsiyalash va yerlarning foydalanishdan chiqib ketishining oldini olish boʻyicha ahamiyatli qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. [2,5]

Adabiyotlar tahlili. Yer resurslaridan samarali foydalanish, yerlarni faol foydalanishda ushlab turish, foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni rekulʼtivatsiyalash orqali qayta faol foydalanishga qoʻshish boʻyicha dunyo miqyosida Germaniyada G.Shuls, Rossiyada S.Volkov, V.Vilyams, AQShda B.Volger, H.Gardner, Fransiyada J.Bussengo, Germaniyada A.Shideldorf, Avstraliyada K.Binder kabi olimlar tomonidan oʻrganilgan va keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitlarida S.Avezbayev, A.Bobojanov, K.Raxmanov, B.Inomov, R.Sharapov, N.Reimov, SH.Narbaev va boshqa olimlar yerlardan samarali foydalanish, yer tuzish, kadastr va yer monitoringi, yangi texnologiyalar, masofadan zondlash boʻyicha har xil ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Lekin, Qoraqalpogʻiston Respublikasi sharoitida yerlarni faol foydalanishda ushlab turish, foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni rekulʼtivatsiyalash orqali qayta foydalanishga kiritish va uning tuproq unumdorligiga taʼsiri boʻyicha tadqiqotlar yetarli darajada oʻrganilmagan hamda ilmiy tavsiyalar berilmagan [5].



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Materiallar va uslublar. Tadqiqotlar dala usulida olib borilib, bunda B.A.Dospexovning «Dala tajribalarini oʻtkazish uslublari» uslubiy qoʻllanmasi, yerlarni rekulʼtivatsiya qilish boʻyicha uslubiy koʻrsatmalar asosida bajarilgan.

Faol foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni rekulʼtivatsiyalash va rekulʼtivatsiyalangan uchastkalarda har xil qishloq xoʻjaligi ekinlarini sinab, iqtisodiy samaradorligini aniqlash boʻyicha dala tajribasi rekulʼtivatsiya ishlarining 17.5.1.02-85. GOSTining qishloq xoʻjaligidagi rekulʼtivatsiya yunalishi boʻyicha olib borildi. Tadqiqotlar Qoraqalpogʻiston Respublikasi tumanlarida, rekulʼtivatsiyaga muxtoj fermer xoʻjaligi yerlarida dala tajribasi usulida olib borilib, bunda yerlarni rekulʼtivatsiya qilish boʻyicha uslubiy koʻrsatmalar; tuproqning unumdor qatlamini qirqib olish, saqlash va oqilona foydalanish. Toshkent; ID-1255. 2018.; 1:10000, 1:25000 masshtablardagi Taxtakopir tumani xoʻjaliklari xaritalari; qurilish uchun injenerlik qidiruvlari hujjati (KMK 01.07.97y.); topografik syomka boʻyicha yoʻriqnoma; B.A. Dospexovning «Tajriba oʻtkazish metodikasi» 1985 yil; tajribalardan olingan maʼlumotlarga statistik ishlov berish B.A.Dospexovning bir omilli dispers usulida amalga oshirildi. Ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda ilmiy mushohada, tizimli tahlil, dala tadqiqotlari, hisob-konstruktiv, qiyosiy taqqoslash, matematik modellash, statistik guruhlash usullaridan foydalanilgan [4,5].

Natijalar. Yerlarni rekulʼtivatsiyalab boʻlgan soʻng shu dalaga qoʻshimcha 30 tonna hisobidan mahalliy oʻgʻit berish, 30 tonna hisobidan mahalliy oʻgʻit va 300 kg/ga hisobidan madaniy (mineral oʻgʻitdan-ammofos) oʻgʻitni berish, yigʻilgan yovvoyi oʻtlarlarni maydalagich uskuna (IGK) uskunasi yordamida maydalab, takroriydan dalaga oʻgʻit qilib sohib yuborishga uqshagan usullar qoʻllanilganda va faqat yerlar rekulʼtivatsiya ishlanib, qoʻshimcha tadbirlar ishlanmaganda (nazorat varianti) bugʻdoy oʻstirish tajribada iqtisodiy samaradorlik yuqorida yoritilgan koʻrsatkichlar boʻyicha aniqlanib, soliq va byudjetke tegishli ajirimlar bunga qoʻshilmadi.

Bizning hisoblashimizda bugʻdoyning «Aleksyeich» navini oʻgʻitlashning optimal meʼyorlarini aniqlash boʻyicha oʻtkazilgan ilmiy tajribaning oʻgʻit berilmagan va mineral oʻgʻitlarning har xil meʼyorlari berilgan variantlardagi iqtisodiy samaradorlikni hisoblaganda quyidagi maʼlumotlar olindi.

Bugʻdoyning «Aleksyeich» navni ekib, qoʻshimcha oʻgʻit berilmagan, tuproqning tabiiy oʻnimdorligi bilan, yani oʻgʻitsiz oʻstirgan variantda 43,1 s/ga oʻnim olinib, sotishdan kelib tushgan pul 10 million 775 mingta soʻmga teng boʻldi. Bugʻdoyni oʻstirish vaqtidagi jami xarajatlar - vegetatsiya vaqtidagi xarajatlar, mexanizatsiyalashtirish ishlari, sugʻorish xarajatlar, uruq, oʻgʻit baholari hamda boshqada koʻrilmagan xarajatlar - 8 million 596 ming 845 soʻmga teng boʻlib, tushgan sof foyda 2 million 178 ming soʻmga va rentabellik saviyasi 25,3 % ga teng boʻldi.

Rekulʼtivatsiyalangan yerlarda bugʻdoyning «Aleksyeich» navini qurigan oʻt oʻtlar (gektariga 2025kg) maydalanib koʻmilgan va rekulʼtivatsiya ishlangan variantda 46,0 s/ga oʻnim olinib, sotishdan kelib tushgan xarajat 11 million 500 ming soʻmga teng boʻldi. Bugʻdoyni oʻstirish vaqtidagi jami xarajatlar 8 million 923 ming soʻmga teng boʻlib, tushgan sof foyda 2 million 577 ming soʻmga va rentabellik saviyasi 28, 8 % ga teng boʻldi.

Rekulʼtivatsiya ishlangan, gektariga 30 t/ga hisobidan gung berilgan va 300 kg fizik vaznda ammofos berilgan variatda 54,8 s/ga oʻnim olinib, sotishdan kelib tushgan pul 13 million 700 ming soʻmga teng boʻldi. Kuzgi bugʻdoyni oʻstirish vaqtidagi jami xarajatlar - vegetatsiya vaqtidagi xarajatlar, mexanizatsiyalashtirish ishlari, sugʻorish xarajatlari, urugʻ, oʻgʻit baholari hamda



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



boshqada ko'rilmagan xarajatlar - 9 million 878 ming so'mga teng bo'lib, tushgan sof foyda 3 million 8227 ming so'mga va rentabellik saviyasi 38,6 % ga teng bo'ldi.

Xulosalar. Foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni qayta foydalanishga kiritish uchun rekul'tivatsiyalash ishlari o'z qarajatlari to'liq qoplaydi va qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish bilan iqtisodiy jihatdan samaradorli ekanligi ilmiy tajribada dalillandi.

Rekul'tivatsiya ishlari bajarilgan yerlarda suvni tejovchi texnologiyalar (yerlarni lazerli tekislash, tomchlatib va yomg'irlatib sug'orish) bilan bug'doy ekish maqsadga muvofiq.

Respublikada yerlarni foal foydalanishga kiritishga markazlashgan maxsus texnika va resurslarga ega yerlarni lazerli tekislash guruxini tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. 1.Reimov O.N., Reimov N.B. Yerlarni rekul'tivatsiyalashning ahamiyati, so'ngi ekilgan ekinlarning hosiliga ta'siri. //Periodica impakfaktor Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities. ISSN NO:2720-4030. December 2025 <https://periodica.com>. 18-21pp.

2. Реимов О.Н., Реимов Н.Б. Рекультивация земель, вышедших из оборота в Каракалпакстане и ее влияние на урожайность последующих сельскохозяйственных культур и плодородие почв. //Актуальные проблемы современной науки. ISSN 1680-2721. ® №6. ноябрь (147) 2025 г. стр.167-170.

3. Reimov O.N., Narbaev Sh. K.,Reimov N.B. Foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni rekul'tivatsiyalash va so'ngi ekilgan ekinlarning hosildorligi bilan tuproq unimdorligiga ta'siri. //Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi –11/1-2025yil. 312- 316 betlar

4. Reymov Omirbayning dissertatsiya ishi hisobotlari.